

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR TAFAKKURIGA DESTRUKTIV TA'SIRI

**Kadirova Gulchexra Muminovna**  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*  
*Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu tadqiqot ishimizda axborot texnologiyalarining yoshlari tafakkuriga destruktiv tasiri tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda ommaviy axborot vositalaridan yoshlari ongiga singdirilayotgan turli xildagi yod va vayronkor g'oyalarning kirib kelishi ilmiy o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, ma'daniyat, g'arb ma'daniyati, subma'daniyati, internet, axborot tarmog'i, regulyator.

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'l mish "Internet" orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Ba'zi yoshlarimiz - turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakgina, istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetri shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yosh avlodning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida internet tarmog'iga murojaat qilmoqda. Albatta, bu tarmoqning qulay axborot manbai ekan, istagan narsangizni undan bir zumda topa olishingiz mumkinligi, soniyalar ichida dunyoning narigi chekkasi bilan bog'lanish imkoniyati mavjudligi muhim omil. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bu cheksiz in'omidan o'z g'arazli manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar soni ham ortib borayotganidan ko'z yuma olmaymiz. Respublikamizda ham internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin o'sib, hozirgi paytda 9 milliondan oshgani, ularning aksariyati yoshlari ekanini hisobga olsak, bu holat barchamizni yanada ogoh va sergak bo'lishga undaydi<sup>58</sup>.

Hozirgi davrga kelib jahon taraqqiyotining muxim xususiyatlaridan biriga aylanayotgan keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlarini ham har tomonlama o'rganish zaruratga aylanib bormoqda. Bu jarayonlar fan va texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishi g'oyaviy-mafkuraviy sohaga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda<sup>59</sup>.

<sup>58</sup> [http://ftp.infocom.uz/PDF/2016/6\\_2016.pdf](http://ftp.infocom.uz/PDF/2016/6_2016.pdf)

<sup>59</sup> Samadov A.R. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. –Samarqand: "SamDU" 2019. –B.242.

Yurtimizda internet xalqaro axborot tarmog'ini milliy ma'lumotlar bilan to'ldirish ham bugungi kunning eng dolzarb zaruriyatidir. Ta'kidlash joizki, bu borada bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Shuni unutmaslik lozimki, bugun yurtdoshlarimiz ongiga bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaymaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan darajada ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'yangan, ilmiy asosda puxta tashkil etilgan, uzluksiz olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish lozim. Toki yoshlarimiz milliyligini saqlab qolgan holda, dunyoni chuqur anglaydigan, davr shiddati bilan baqamti qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalalar yurtdoshlarimizga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi<sup>60</sup>.

Shunday ekan, yoshlarimiz ongini egallahsga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo'lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko'zlagan ulug'vor maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Internetning ta'siri:

- A) yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida);
- B) G'arb yashash tarziga xos, lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo);
- C) pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri;
- D) tekshirilmagan axborotlar (bo'xtonlar).

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditorianing cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odad qilib olgan – yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. endilikda Internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm – Internetda o'ta izchil voqelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi sakkiz usul orqali foydalanadilar:

- Psixologik urush
- Reklama va targ'ibot
- Ma'lumotlar to'plash
- Vositalar to'plash
- Qo'lga tushirish va safarbar etish
- Tizimlar tashkil etish

<sup>60</sup> Ehtiyyot bo'ling: Axborot xurujlari – [www.xuquq.uz](http://www.xuquq.uz)

- Axborot ta'minoti
- Rejalashtirish va koordinatsiya

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- A) dunyoqarashning kengayishi;
- B) ob'ektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilis imkoniyati (bunda yosh yigit yo qizning axborotga "to'q bo'lishi" va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan "did" bo'lmasa, u axborot oqimida "cho'kib" ketishi mumkin ya'ni, ta'siriga berilib ketishi);
- C) masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati;
- D) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi<sup>61</sup>.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarni ma'naviy tahdidlar va informatsion xurujlardan himoya qilishdek dolzarb masalala muhokama etilishi, ushbu yo'nalishdagi ishlarni tahlil qilish, qolaversa, mavjud muammo va kamchiliklarga barham berishda barcha insonlar birdek masuldirlar.

XXI asr – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlik tobora kuchayib borayotgan murakkab jarayonlar qurshovida, ya'ni globallashuv zamonida yashayapmiz.

Bugun nafaqat yurtimizning, balki dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga qadar – bir qadam. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharofati bilan inson o'z uyida o'tirganicha dunyoning turli chekkalarida qanday voqeа-hodisalar yuz berayotganini nafaqat eshitish, ayni chog'da ko'rib-kuzatish va hatto o'z munosabatini bildirish imkoniga ega.

Hozirgi kunda mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 9,8 milliondan oshdi. 16 mingga yaqin Uz domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. Ta'limni axborotlashtirish tizimida barpo etilgan infratuzilmalardan, o'qish va boshqarish maqsadida axborot resurslarining yangi raqamli ko'rinishlaridan keng foydalanishga yo'l ochilmoqda<sup>62</sup>.

Ayniqsa, axborot-resurs markazlari barpo etilib, faol ishlamoqda. Ushbu markazda turli ta'lim faoliyatlari yo'nalishlari bo'yicha 125 ta elektron ta'lim vositalariga kirish imkoniyati mavjud. Ta'lim muassasasi lokal tizimi (Wi-Fi) orqali internetga chiqish tashkil etilgan. 82 foiz o'qituvchilar axborot texnologiyalari foydalanuvchilarining sertifikatiga ega. Bularning hammasi ta'lim jarayonini yanada qiziqroq tashkil etishga imkon beradi.

Lekin, masalaning yana bir nozik tomoni borki, uni ham unutmasligimiz lozim. Texnik imkoniyatlarning va telekommunikatsiya tizimiga kirishning kengayishi,

<sup>61</sup> Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi 12.12.2007 Rukn: Internet. Muallif: Nig'matullo Mo'minov

<sup>62</sup> Internetdan kim qanday foydalanmoqda? [www.uza.uz/.../internetdan-kim-qanday-foydalanmoqda-14...](http://www.uza.uz/.../internetdan-kim-qanday-foydalanmoqda-14...)

elektron axborot vositalarining rivojlanishi, ularning Internet bilan mos kelishi va onlayn rejimida muloqot qilish yo'llarining ko'pligi voyaga yetmaganlar o'rtasida axborot xavfsizligiga tahdidni yanada kuchaytiradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istiklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda, asosiy e'tibor kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning "regulyator"lik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi<sup>63</sup>.

Yurtimizda voyaga yetmaganlar tomonidan kompyuter o'yinlarini o'ynash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, kompyuter o'yinlariga qancha vaqt sarflaysiz? – savoliga 86% respondent 1-2 soat, deb javob qaytargan, 10% respondent 3-4 soat, 3,3% respondent 7 soat va undan ko'proq vaqtini kompyuter o'yinlari o'ynash bilan o'tkazishini aytgan. 0,7% respondent 5-6 soat vaqt davomida o'yin o'ynayman, deb javob qaytargan.

Internet orqali kirib kelayotgan xavflarning yoshlardan ham ko'ra bolalar ongiga ko'proq ta'sir qiluvchi usuli - bu kompyuter o'yinlaridir. Bugungi kunda kompyuter o'yinlarining eng ommalashgan janrlari, masalan, "Warface", "God of War", "Sylend Hill" va boshqalar yoshlar ongini zaharlashga, ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan ma'naviy xurujlardir. Ular orasida shunday mazmundagi o'yinlar borki, unda "sen o'lдirmasang, seni o'lдiradilar" aqidasi ilgari surilgan. Shuning uchun, zamonaviy media-makonida voyaga yetmagan foydalanuvchilarning soni oshib borayotganligi, o'z navbatida, ularning jismoniy va ma'naviy-ahloqiy jihatdan himoya qilish muammosining dolzarbligini ham oshirmoqda. Bir tomondan, har bir bolaning imkoniyatlari maksimal tarzda amalga oshirilishi va hayotiy salohiyatni shakllantirish, ta'lim, tarbiya va faoliyatning ijtimoiy pozitiv turlarida o'zini ko'rsata olishi uchun sharoit yaratish lozim. Ayni paytda buning uchun yangi axborot texnologiyalarini qo'llamasdan va internet tizimidan foydalanmasdan erishib bo'lmaydi<sup>64</sup>.

Boshqa tomondan esa, yoshlar uchun har jihatdan qulay va hayrixohlik ruhidagi axborot makonini barpo etish bilan bog'liq muammolar o'z ahamiyatini saqlab qoladi va ta'lim-tarbiya vazifalariga mos kelmaydigan axborot tarqalishining xavfi o'sib boradi<sup>65</sup>.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi axborot xavfsizlikka asosiy tahdidlarni ya'ni, internet tarmog'idagi xavflar, sabrsizlik, zo'r lash va shafqatsizlik targ'iboti, giyohvandlikka tobelikning turli shakllardagi targ'iboti, pornografik resurslar, kiberbulling va giromaniya, suitsid yo'nalishidagi sekta va resurslar, deb aytishimiz mumkin.

<sup>63</sup> Линдсей, Г. Творческое и критическое мышление / Г.Линдсей, К.С. Халл, Р.Ф. Томпсон // Хрестоматия по обычной психологии. - Втип. ИИИ. / Отв. ред.

<sup>64</sup> Липкина, А.И. Критичность и самоотсенка в учебной деятельности [Текст] / А.И.Липкина, Л.А.РЛибак. - М., Просвещение, 1985. - 145 с.

<sup>65</sup> Kompyuter o'yinlarining yoshlar ma'naviy ongiga salbiy ta'sirini oldini olish masalalari uz.infocom.uz/.../kompyuter-oynalarining-yoshlar-manaviy....

Voyaga yetmaganlar uchun internetdagi xafv-xatarlar qatorida, birinchi o'rinda, suitsidni ajratish lozim. Bunday saytlarda bolalar hayotni tark etish usullari haqida axborot olishadi. Keyingisi, narkosaytlar; pornografik yo'nalishdagi saytlar; milliy nizo va irqiy ajratishni keltirib chiqaruvchi, rahmsizlik va zo'rplashni targ'ib qiluvchi saytlar; shuningdek, sektalar va shunga o'xshash tanishuv saytlari va boshqalar. Bundan tashqari, o'smirlar orasida kompyuter va internetga tobelik, kompyuter o'yinlariga beriluvchanlik (igromaniya), kiberbullying (internetdagi zaharlash) kabilar uchramoqda. Bularning hammasi bolalar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, barcha ta'lim muassasalari, mahalla, ota-onalarni, umuman, barchamizni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, yovuz kuchlar internetdan fahsh, giyohvandlik va zo'ravonlik, terrorizm, fashizm, natsizm va shovinizm kabi balo-qazolarni tarqatish vositasi sifatida foydalanayotgani, buni yoshlarga to'g'ri tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishga alohida mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi<sup>66</sup>.

Xalqaro ekspertlar dunyo miqyosida 38 foiz yoshlar zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foizi millatchilik xarakteridagi veb-sahifalarni muntazam kuzatib borishini aniqlagan. UNISEF tomonidan o'tkazilgan so'rovlар internetdan foydalanadigan yoshlarning 90 foizi axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi esa bu turdagи axborotni maqsadli ravishda izlaganini ko'rsatmoqda. Hatto o'zimizning ba'zi yoshlarimiz uchun ham internet va qo'l telefonlari ahloqsizlik manbaiga aylanayotgani o'ta tashvishlidir. Negaki, oqibatda bunday ziyonli ta'sir domiga tushib qolgan farzandlarimizda yaqinlari va qarindoshlarga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg'ulari susayib, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, egoizmga moyillik kuchayib bormoqda.

Mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini egallahsga yo'naltirilgan bo'lib, "ommaviy madaniyat" deb qaralayotgan mazkur illat halqimizning ma'naviy xazinasi bo'lgan odob-ahloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizga tajovuz qilib, ko'p ming yillik milliy qadriyatlarimizning ildiziga putur yetkazayotgani ham, taassufki, bor gap.

Davlatimiz rahbari barcha ommaviy axborot vositalari qatori internet ham yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishini ta'kidlab, "Internet – bu katta bir do'kon. Do'konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, ya'ni axborot bozori, deb tushunish kerak", deydi. Biz 'sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular internet bozoriga kirganda faqat o'zi uchun zarur narsani olsin, internetdagi axborotdan foydalanish madaniyatini o'rgansin. Internetdan foydalanuvchi har bir fuqaro, avvalo, internetdan foydalanish qoidalari yaxshi bilishi zarur. Xususan, notanish saytlarga kirmaslik, hech qachon hech kimga shaxsiy parolni yubormaslik, internet orqali muloqot paytida shaxsiy

<sup>66</sup> Манко, В.В. Реализация проекта РКМЧП на Нижегородской площадке [Текст] / В.В. Марико, А.Н. Гладкова, Т.В. Учуватова // Технология развития критического мышления в вузе: перспективы для школьного образования XXI века: материалы конференции. - Н.Новгород: «Арабеск», 2001. - С. 181 - 195.

ma'lumotlarni kiritmaslik va tahallus (nik)dan foydalanish, kattalarning nazoratisiz hech qachon internet tizimida tanishib qolgan shaxs bilan uchrashmaslik va kompyuter ekranidagi ma'lumotlarni qarovsiz qoldirmaslik internetdan foydalanish qoidalariiga kiradi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida axborot texnologiyalarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatga bevosita tasir ko'rsatib, iqitsodiy-innovatsion omillar bilan bog'liq holda nomoyon bo'lmoqda.
2. Axborotlashgan jamiyatni shakllantirishning muhim sharti bo'l mish aholini zararli axborotlardan himoya qilish uzluksiz yo'naliш hisoblanadi. Gugungi bloballashuv sharoitda axborotlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish kerak.
3. Ta'lim-tarbiya jarayonida axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish, axborotlashgan jamiyatning asosiy sharti hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Samadov A.R. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. -Samarqand.: "SamDU" 2019. -B.242.
2. Линдсей, Г. Творческоэ и критическое мышление / Г.Линдсей, К.С. Халл, Р.Ф. Томпсон // Хрестоматия по обычный психологии. - Втип. ИИИ. / Отв. ред.
3. Липкина, А.И. Критичност и самоотсенка в учебной деятельности / А.И.Липкина, Л.А.Рлибак. - М., Просве ение , 1985. - 145 с.
4. Манко, В.В. Реализация проекта РКМЧП на Нижегородской площадке / В.В. Марико, А.Н. Гладкова, Т.В. Учуватова // Технология развития критического мышления в вузе: перспективы для школьного образования XXI века: материалы конференции. - Н.Новгород: «Арабеск», 2001. - С. 181 - 195.
5. [http://ftp.infocom.uz/PDF/2016/6\\_2016.pdf](http://ftp.infocom.uz/PDF/2016/6_2016.pdf)
6. Ehtiyot bo'ling: Axborot xurujlari – [www.xuquq.uz](http://www.xuquq.uz)
7. Globallashuv jarayoni va axborot xavfsizligi 12.12.2007 Rukn: Internet. Muallif: Nig'matullo Mo'minov
8. Kompyuter o'yinlarining yoshlar ma'naviy ongiga salbiy ta'sirini oldini olish masalalari [uz.infocom.uz/.../kompyuter-oynalarining-yoshlar-manaviy-...](http://uz.infocom.uz/.../kompyuter-oynalarining-yoshlar-manaviy-...)
9. Internetdan kim qanday foydalanmoqda? [www.uza.uz/.../internetdan-kim-qanday-foydalanmoqda-14...](http://www.uza.uz/.../internetdan-kim-qanday-foydalanmoqda-14...)